

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

**Abduqodirova Nazira Xoliknazarovna, Jizzax davlat pedagogika instituti,
Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi**

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif muassasasida tashkil etiladigan sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lif muassasasida sahnalashtirish faoliyati bolalar tafakkurini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Kalit so'zlar: sahnalashtirish faoliyati, tafakkur, teatr madaniyati, bolajonlar teatri.

Maktabgacha ta'lifning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lif jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri sahnalashtirish san'ati orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Maktabgacha ta'lif muassasalarida sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazzam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Davlat umumilliy dasturi ta'lif tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta'lif sifat-samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo'naltirildi. Maktabgacha ta'lif muassasasi mashg'ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lif muassasalarining sahnalashtirish faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi.

Hozirgi kunda ma'lumki, teatrning bir necha turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bulardan: komediya teatri, drama, xalq teatri, musiqali drama va komediya, opera, balet va qo'g'irchoq teatrлari shular jumlasidandir. Teatr bu yunoncha (tiyation) so'zidan olingen bo'lib- tomoshaxona degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli tomoshasi bu - qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, aylig'cha quyoncha, kuchukcha va boshqa qahramonlarni jonliligi, harakat qilish va gapirish bolalarni o'ziga rom etish. Bu teatr bolalarga katta hursandchilik va quvonch bahsh etish. Bu nafaqat ko'ngil ochish uchun, balki tarbiyaviy ma'nosiga ham qarash kerak. Bolalar bog'chasida katta va qiyin spektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yishlari,

mumkin. Bu kichik ko'rinishlarining har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram ertaklariga ko'tarinki ruh bahsh etadi. Har qanday badiiy asarni qo'g'irchoq tetri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi. Teatrni ko'rib bolalarning dunyoqarashi kengayib, xotirasida ancha vaqtgacha qoladi.

Soya teatri- qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqlar emas, balki shakklardan iborat o'yinchoqlar o'ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rishi mumkin. Bolalar bog'chasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta'lim natijasida ularda bog'cha yoshidan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko'rsatadi. Ijodkorlik mактабгача yoshidagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladi. Albatta bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomick, psixologik xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Mактабгача yoshidagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'laligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6 - 7 yashar bolalarda ko'ra olish va asosiy sifatlarini shakli mutanosibligi rangi-yu tarkibiy qismlarini shuningdek, fazodagi o'rmini idrok eta oladi. Ma'lumki bolalar 6 – 7 yoshga yetgach, tevarak atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Tafakkur jarayonlari rivojlanishi bilan bola predmetlarni ifodali tasvirlay oladigan bo'ladi. Bolalar ijodkorligida san'atkor ijodidagi singari tasavvur katta rol o'ynaydi. Ma'lumki uning kuratklari bola bo?chaga kelmasdanoq nish ura boshlaydi. Ta'lim jarayonida ertaklar eshitish har xil rasmlarni tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta – sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar uchun o'z faoliyatini mustaqil rejalahtira olish va tasvirlash hamda texnik usullarni tanlash imkoniyati yaratilsa, ularda o'yinchoq yasash mashg'ulotlarda ijodiy tasavvur elementlari namoyon bo'ladi. Odatda bolaning ijodiy tasavvuri tasvirlangan qahramonlarning kiyimlari yangi detallar o'ylab topishda yoki savatcha tayoqcha, belkurak singari predmetlarni qo'shishda ko'rindi. Tarbiyachi bog'cha bolasiga mustaqil fikrlashni o'rgatishga ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolaga rahbarlik qilib rejali ijodiy ishga yo'naltirishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda tasavvurni shakllantirish jarayoni to'g'risida gaplashar ekanmiz uning bola ongida obrazlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan emotsional tomonini aytmaslik mumkin emas. Bolalar o'zlari ko'rgan va eshitgan barcha narsalardan ta'sirlanadilar. Ular o'zlari idrok etgan narsalarga muayyan ijodiy yoki salbiy munosabatda bo'ladilar. Bu albatta tasvirlash faoliyatiga ta'sir etadi. Bola yaratgan obraz yetarli muayyan belgilariga ega bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bola rivojlanishining xususiyatlari va unda tasvirlash qobiliyatining o'yinchoqlar yasash mash'gulotlarida bolalar ijodkorligini o'stirishning umumiy vazifalarini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarini qo'l mehnatiga o'rgatish qiziqish uyg'otish mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish lozim.

Sahnalashtirish faoliyati nutq ifodalilagini shakllantirish, intelektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hissiyotlarini rivojlantirishning tunganmas manbasi hisoblanib uni ma'naviy boylikka oshno qiladi.

Xalqimizning boy madaniy ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi. Har bir insonning hayoti o'yinlar bilan o'tadi u bolada kattalarning hayotiy qonun qoidalari anglashni o'rgatadi. Har bir bola o'zi bilgancha o'ynaydi, lekin bu o'yinlar asosan kattalar sevimli qahramonlaridan o'rganib ularga taqlid qilgan. Sahnalashtirish uchun material tanlaganda bolalarning yosh xususiyatlari bilim ko'nikmalaridan kelib chiqish zarur shu bilan birga ularning hayotiy tajribasini boyitish yangi bilimlarga qiziqish uyg'otish va ijodiy imkoniyatlar berish kerak. Rollarni faqat qobiliyatli bolalar o'rtasida taqsimlamay barcha bolalarga o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishlariga imkon berish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalari sahna namoyishlari uchun burchaklar tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish faoliyatini shakllantirish jarayonida hamkorlik shakllarini ham tavsiya etamiz. Hamkorlikdagi sahnalashtirish faoliyatida spektakl qo'yish jarayoniga yetarli darajada faol bo'limgan bolalarni ham jalb etish, bu orqali ularda erkin fikrlay olish qobiliyatini, uyatchanlik va tortinchoqlik kabi odatlarini yo'qotishda sahnalashtirish faoliyati yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Nishonova Z.G. Детская психология и методы ее обучения. Т.: 2006. С. 18-19.
2. "Bola va zamon" №2 / 2007 (7)
3. "Maktab va hayot" 2005 №432.16 с.
4. Khaliqnazarovna, A. N. (2019). FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
5. Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.
6. Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
7. Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛАНТИШ. В евразиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
8. Уктаимова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .

- 9.Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 10.Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ўқитиши технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 12.Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 13.Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 14.Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 15.Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 16.Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 17.Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 18.Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- 19.Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.